




**SUN'YI INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISH IQTISODIYOTNI  
YUKSALTIRISH VA JAMIYATDA XIZMATLAR ERKINLIGINI  
TA'MINLASH KALITIDIR.**

**Berdialiyeva Gulnoza Murodjonovna  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
Ommaviy axborot vositalari huquqi  
fakulteti magistratura talabasi,  
2002gulnoza@gmail.com,  
91 012-12-22**

**Annotatsiya:** Hayotimizning ajralmas qismiga aylanib borayotgan katta hajmdagi ma'lumotlarni o`zida jam qiladigan va ushbu axborotlar orqali yirik operatsiyalarni bajaradigan sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish jadal rivojlanib bormoqda. Dunyoning ko`plab ilmiy-tadqiqot institutlari olimlari ushbu sohani butun jamiyatni boshqaradigan, iqtisodiyotni yuksaklikka olib chiqadigan hamda ishsizlar soni ko`payishi va shu bilan birga yangi kasblarning paydo bo`lishiga zamini yaratadigan soha sifatida baholashmoqda. Chunki mazkur aqlli texnologiyalar arzon narxlardagi yuqori samarali hisoblash resurslari ekanligi, ta'lim uchun katta hajmdagi ma'lumotlarni qamrab olishi hamda sun'iy intellekt mahsulotlari raqobatbardoshlikni mustahkamlab borishi sun'iy intellektni turli sohalarga joriy etilishi uchun asosiy sabablar sifatida ko`rilmoqda. Ammo sun'iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqarish, uni ishga tushirish hamda jamiyatning turli tarmoqlarida qo`llash, ulardan foydalanishning asoslari, shartlari va xususiyatlarini tartibga soluvchi huquqiy-me'yoriy hujjatlarning yo`qligi butun dunyo mamlakatlari uchun global muammoga aylanmoqda. Shu sababli jahon mamlakatlarining hukumatlari mazkur yo`nalishni o`zlarining hududlarida sun'iy intellekt texnologiyalarini targ`ib qilish va uni tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarni joriy qilish uchun yo`l xaritasini ya'ni sun'iy intellektni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishmoqdalar.






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

**Kalit soʻzlar:** sunʻiy intellekt, texnologiya, avtopilot, robot, soha, “Raqamli Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi, axborot, infratuzilma, elektron hukumat, xorijiy mamlakatlar, tarmoqlar, IT-parklar, strategiya.

**Kirish:** Sunʻiy intellekt texnologiyalarini jamiyatimizning turli sohalarida aholiga yengillik yaratish maqsadida iijadali joriyii iietishii iivaii iularniii iimamlakatimizidaii iikengii iiqoʻllash, iiii raqamli ii iimaʼlumotlardan ii i i foydalanish ii imkoniyatini va ularning yuqori sifatini taʼminlash, ushbu sohada malakali kadrlarni tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida 05.10.2020 yilda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079 “Raqamli Oʻzbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni asosida “Raqamli Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi qabul qilindi. Mazkur strategiya mamlakatni belgilangan davr mobaynida raqamlashtirish, fuqarolarga koʻrsatiladigan xizmatlarni avtomatlashtirish, shuningdek sunʻiy intellekt tizimlarini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqilishi uchun ham asos boʻlib xizmat qiladi. Bundan tashqari ushbu strategiyaning qabul qilinishi bilan raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, taʼlim, sogʻliqni saqlash va qishloq xoʻjaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan taʼminlashni koʻzda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan. Shuningdek ushbu qonunchilik hujjatiga muvofiq,

- Raqamli infratuzilmani rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari;
- Elektron hukumatni rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari;
- Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari;
- Raqamli texnologiyalar milliy bozorini rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari;
- Axborot texnologiyalari sohasida taʼlim berish va malaka oshirishning ustuvor yoʻnalishlari ham belgilab olingan.






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

Mazkur texnologiyalar insonning aqliy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan imkoniyatlarni, xususan tilni tushunish, o'rganish va o'rgatish, tarjima qilish, ma'lum bir masalani yechish, muhokama qilish va shu kabi qobiliyatlarga ega bo'lgan kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug'ullanadi. Sun'iy intellektni aholining katta qismi odamlar kabi gaplasha oladigan, uydagi va ishdagi yumushlarni odamlarning o'rniga bajaradigan robotlarni tasavvur qilishadi. Ammo bu nisbatan kengroq tushuncha hisoblanib, doimiy ravishda ishlatadigan telefon apparatimizdagi dasturlar, masalan yandex perevod hamda google translate kabi lug'atlar, turli o'yin-kulgu ilovalari va boshqalarni sun'iy intellekt texnologiyalariga aniq bir misol bo'ladi. Faqatgina mazkur dasturlarning xotirasi kichik bo'lgan formatda bo'lib, ular bizga ma'lum bir yo'nalishda ehtiyojlarimizni qondirishga ko'mak bera oladi.

**Asosiy qism:** Odatda inson psixikasining asosiy elementi sifatida uning aql-idroki ya'ni intellekti tushuniladi, bu unga tashqi muhitdan kelayotgan informatsiyalarni aniq tushunish hamda tanish bo'lmagan holatlarga ko'nikish sharoitini yaratib beradi. Insonda kognitiv funktsiya bilan bo'g'liq bo'lgan elementlar mavjud bo'lib, bu yuqori miya funktsiyalari hisoblanib, mazkur qobiliyatlar shaxsni atrof-muhit bilan bog'laydi, ushbu jarayon insonlarga holat to'g'risida ma'lum bir dunyoqarashga ega bo'lishga, shuningdek o'zaro munosabatga kirishishga imkoniyat yaratadi. Aqliy qobiliyatlar jumlasiga fikrlash qobiliyatini, nutqni, ma'lum bir hodisani o'rgana olish va boshqa shu kabi insonning aqliy-faoliy xususiyatlari kiradi. Intellekt (aql-idrok) kognitiv qobiliyatlarning namoyon bo'lishidir.

2019-yilda Yevropa Komissiyasining Sun'iy intellekt bo'yicha ekspertlar guruhi tomonidan tayyorlangan hujjatga ko'ra, "sun'iy intellekt" atamasi aql tushunchasiga aniq ishorani o'z ichiga oladi. Biroq, ekspertlarning ta'kidlashicha, aql (mashinalarda ham, odamlarda ham) noaniq tushuncha bo'lib, garchi uni psixologlar, biologlar va neyrofiziologlar o'rgansalar ham, sun'iy intellekt tadqiqotchilari asosan ratsionallik tushunchasidan foydalanadilar. Bu optimallashtirish uchun ma'lum mezonlar va mavjud resurslarni hisobga olgan holda, muayyan maqsadga erishish uchun eng yaxshi harakatni tanlash qobiliyatini anglatadi. Shunday qilib, aqlning ideal tushunchasi ratsionallik bilan bog'liq.

Sun'iy intellekt texnologiyalari - bu intellektual faoliyat bilan bog'liq bo'lgan inson faoliyatini sun'iy modellashtirish muammolarini hal qilishga imkon beruvchi






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

texnologiyalarning (subtexnologiyalar) butun guruhi. Sun'iy intellekt texnologiyalari tegishli ilmiy-texnik yo'nalish doirasida ishlab chiqiladi va takomillashtiriladi, uning maqsadi inson ongi bilan an'anaviy bog'liq bo'lgan qobiliyatlarga ega bo'lgan sun'iy intellekt tizimlarini yaratish va amalga oshirish: tilni tushunish, o'rganish, fikr yuritish, muammolarni hal qilish va boshqalar. Texnologik yechimlar majmuasiga axborot-kommunikatsiya infratuzilmasi va mashinani o'rganish usullaridan foydalanadigan dasturiy ta'minot kiradi, shuning bilan birgalikda, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va qaror qabul qilish jarayonlarini ham olishimiz mumkin. Sun'iy intellekt texnologiyalari insonning ijodiy funksiyasini taqlid qilish, kognitiv qobiliyatlarni namoyish qilish imkonini beradigan texnologik yechimlar to'plamini tashkil qiladi.

XXI asrda insoniyat sun'iy intellektni kundalik hayotga tatbiq etish masalasini keskin ko'tarmoqda. Texnik yoki dasturiy ta'minot tizimining ilgari faqat inson yoki boshqa biologik mavjudot tomonidan bajarilishi mumkin bo'lgan funksiyalarni bajarish xususiyatiga ega bo'lgan mazkur texnologiyaning eng oddiy ko'rinishi sifatida mikroto'lqinli pech isitgichlarini olsak bo'ladi, lekin murakkab algoritmlar orqali ishlaydigan tizimlar ham mavjud. Masalan sun'iy intellektning vositachi sifatida maqsadlarimizga erishish uchun hozirgi kunda Yandex navigatsiya dasturidan foydalanib kelmoqdamiz. Mazkur navigator yo'l tirbandligini chetlab o'tib, uyga tezda yetib borish imkoniyatini yaratib beradi, bora-bora ushbu algoritmlar bizning boshqaruvchimizga aylanishi mumkin (chunki biz aynan u tomonidan ko'rsatilgan yo'nalish bo'yicha harakatlanib, uning buyruqlariga quloq solmoqdamiz). Agar yonatrofdagi do'stlarimizga ham e'tibor qaratadigan bo'lsak, Yandex dasturidan minglab avtoullov boshqaruvchilari har daqiqada yo'llardagi holat haqidagi ma'lumotlarni kuzatayotganini ko'ramiz. Shuning uchun ilova bizning vaqtimizni tejab, uyga qanday qilib eng oqilona yo'lni bosib o'tishni biladi. Microsoft kompaniyasi hozirgi kunda Cortana dasturini ishlab chiqish va bosqichma-bosqich amalga oshirish bilan shug'ullanadi, bu nafaqat insonga yordamchi, balki odamning muzokaralar paytida to'liq vakili ham bo'lishi mumkin. Bu kabi yo'nalishda tadqiqotlar olib borayotgan va ishlanmalarni jamiyatga taqdim etayotgan boshqa kompaniyalar ham mavjud bo'lib, ularga Siri bilan Apple va Alice bilan Yandex dasturlarini olishimiz mumkin. Texnologiyaning bunday jadal tarzda rivojlanishi ko'plab savollarni tug'diradi.







ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

Sun'iy intellekt fan yoki san'at asarining muallifi sifatida tan olinishi mumkinmi? Sun'iy intellekt inson huquqlariga teng bo'ladimi?

Agarda avtomobil haydovchisi transport vositasiga avtopilot rejimini yoqilgan holda harakatlantirsa-yu, avtomobil avtohalokatga uchrasa, natijada yo'lovchilar jarohat olishadi, sudga murojaat qilishadi va sog'liqqa yetkazilgan zararni qoplashni kimdan talab qilishi hamda ushbu jarayonda kim javobgar bo'ladi: haydovchi yoki sun'iy intellekt?

Jamiyatda sun'iy intellekt insondan san'atdan tashqari boshqa hech qaysi sohada o'zib keta olmaydi, degan fikr keng tarqalgan bo'lib, bu qarash o'zining noto'g'ri hukm ekanligi isbotlanib kelinmoqda. Agar Garri Kasparovni shaxmatda mag'lub etgan Deep Blue o'z yaratuvchilari tomonidan o'yin qoidalarini yaxshi o'rgangan bo'lsa, unda zamonaviy sun'iy intellekt dasturchilardan faqat minimal miqdordagi ma'lumotlarni oladi hamda mustaqil ravishda mashinani o'rganishni afzal ko'radi. Ushbu dasturlar buyruqlar va o'zgaruvchilarni o'zgartiradi, vazifaga erishish uchun tobora yuqori sifatli kod zanjirini yaratadi. Alpha Go dasturi qadimgi xitoyliklarga tegishli bo'lgan "Go" deb nomlangan stol o'yinini o'ynashni o'rgandi, bu shaxmatdan bir necha baravar murakkabroq edi, ammo dastur esa mutlaqo yangi strategiyalarni qo'llagan, bu esa mutaxassislarni hayratda qoldirgan edi. Sun'iy intellektning noodatiy fan va san'at asarlarini yaratishni o'rgangani ham dunyo olimlarini hayratga solib kelmoqda.

2016 yilda "The Next Rembrandt" dasturining paydo bo'lishi odamlarning sun'iy intellektning yarata olmaydi degan tushunchasini yo'q qildi. Ushbu dastur buyuk rassom Rembrandtning rasmlarini tahlil qiladi va olingan ma'lumotlarga asoslanib, buyuk ustaning asaridan ajratib bo'lmaydigan darajadagi o'z rasmlarini yaratadi. Dasturning ishlashi haqida juda qiziqarli ma'lumotlar Microsoft veb-saytida keltirilgan: Microsoft mutaxassislari, Delft texnik universiteti, Qirollik Mauritshuis galereyasi va Amsterdamdagi Rembrandt uy muzeyi hamkorligining o'n sakkiz oylik natijalari o'ziga xos noyob rasm, Rembrandtning ijodiy uslubini ajoyib aniqlik bilan qayta tiklaydigan portretni yaratishgan edi<sup>1</sup>. shuningdek Devid kop – amerikalik bastakor va Santa-Kruzdagi Kaliforniya universiteti o'qituvchisi "Emily Howell" dasturini ishlab chiqdi, u Bax, Betxoven, Shopin va boshqa bastakorlarning durdona asarlarini taqlid qiladigan musiqa yaratishga qodir edi. Shuni ta'kidlash kerakki,

---

<sup>1</sup> Следующий Рембрандт [Электронный ресурс] // [news.microsoft.com/ru-ru/sleduyushhij-rembrandt](https://news.microsoft.com/ru-ru/sleduyushhij-rembrandt)






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

professional musiqachilar ishtirokidagi bir qator tajribalar sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan musiqani buyuk klassiklarning asarlaridan ajratib bo'lmaydi, deb ta'kidlashga imkon beradi. Sun'iy intellekt ilm-fan sohasida ham insondan orqada emas, shuning uchun "Watson" dasturi bemorlarning ma'lumotlarini to'playdi va ular asosida shaxsiylashtirilgan davolash jadvalini yaratadi. Shu nuqtai nazardan, albatta, savol tug'iladi: ushbu fan va san'at asarlariga mualliflik huquqi kimga tegishli?

Bu savolga bir qator davlatlar qonunchiligi nuqtai nazaridan javob bir xil. Buyuk Britaniyaning "Mualliflik huquqi to'g'risida"gi Qonuniga binoan, muallif maqsadga erishish uchun biron bir vositadan foydalanadigan shaxs hisoblanadi. Amerika qonunchiligi esa fan yoki san'at asarining muallifi inson bo'lishi mumkinligiga asoslanadi. AQSh Oliy sudi muallif ongining minimal ijodiy hissasiga ega bo'lmagan asar mualliflik huquqi obyekt bo'lishi mumkin emasligini ta'kidlaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, sun'iy intellektning ongi yo'q, shuning uchun muallif faqat inson bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 1046-moddasini tahlil qilib, biz fan yoki san'at asarining muallifi faqat jismoniy shaxs bo'lishi mumkin degan xulosaga kelishimiz mumkin. Fuqarolik kodeksining 1046-moddasining so'zma-so'z talqiniga asoslanib, ushbu asar kimning ijodiy mehnati bilan yaratilgan bo'lsa, ana shu **fuqaro** asar muallifi deb e'tirof etilishi belgilangan, ammo asarni yaratgan dasturni ishlab chiqqan shaxs fan va san'at asarining muallifi deb tan olinishi mumkin emas degan xulosaga ham kelishimiz mumkin, chunki "bunday natijani yaratishda dasturning egasi shaxsiy ijodiy hissa qo'shmagan deb e'tirof etiladi. A. A. Semenovanning bayonotiga ko'ra: "Dasturni yaratgan shaxs orqasida "aqli mashina" asarining muallifligini tan olish maqsadga muvofiqdir"<sup>2</sup>. Shu bilan birgalikda, bu savolga javobni xalqaro huquqda, ya'ni BMTning "Xalqaro shartnomalarda elektron xabarlardan foydalanish to'g'risida" gi Konvensiyasining 12-moddasida topish mumkin (2005)<sup>3</sup>. Ushbu me'yorning mohiyati shundaki, kompyuter tomonidan amalga oshirilgan operatsiyalarni kompyuter nomidan foydalaniladigan jismoniy yoki yuridik shaxslarning harakatlari deb hisoblash mumkin. Sud amaliyoti yo'qligi sababli, ushbu normani bilvosita to'g'ridan-to'g'ri sun'iy intellekt harakatlari bilan bog'lash mumkin.

<sup>2</sup> E-commerce и взаимосвязанные области (правовое регулирование): сборник статей / Е.А. Останина, Л.В. Кузнецова, Е.С. Хохлов [и др.]; рук. авт. кол. и отв. ред. д.ю.н. М.А. Рожкова. – Москва: Статут, 2019. – 448 с.

<sup>3</sup> Конвенция ООН «Об использовании электронных сообщений в международных договорах» [Электронный ресурс] // [www.un.org/ru/documents/decl\\_conv/conventions/elect\\_com.shtml](http://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/elect_com.shtml)





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, “Sun’iy intellektni muallif deb tan olish mumkinmi?” degan savolga, hozircha “-Yo`q” deb javob bera olamiz. Afsuski, hzoirda O`zbekiston qonunchiligida sun’iy intellekt faoliyatini tartibga soluvchi maxsus qoidalar mavjud emas, shuning uchun sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan asarning muallifi kim deb hisoblanishi masalasi ochiq qolmoqda.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizning fuqarolik qonunchiligida muallifsiz asar yaratishga imkon beradigan aniq bo'shliq mavjud, ya'ni sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan asar jamoat mulki hisoblanadi. Muallif – bu jismoniy shaxs, ya'ni fuqarolik huquqining subyekt, shuning uchun bu holda sun’iy intellekt huquqiy munosabatlar subyekt sifatida tan olinishi kerakligiga bevosita bog'liqlik paydo bo'ladimi?

Sun’iy intellektga qanday huquqiy maqom berilishi kerakligi haqidagi savol juda dolzarb bo'lib, ushbu sohada juda ko'p nuqtai nazar mavjud. Shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi vaqtda sun’iy intellektga ega bo'lgan Android tomonidan taqdim etilgan davlat mavjud bo`lib, u tomondan pretsedent yaratildi, buning natijasida biz sun'iy intellektga jismoniy shaxsning huquqiy maqomi berilganligini aytishimiz mumkin. Ushbu davlat Saudiya Arabistoni bolib, Sofiya ismli gumanoid robotga 2017-yilda Saudia Arabistoni fuqaroligi taqdim etilgan. Ko`plab mutaxassislarning fikrlariga ko`ra, Saudiya Arabistonining sun’iy intellektga jismoniy shaxs maqomining berilishi shoshilinchda chiqarilgan qaror sifatida ta'kidlanmoqda. Shaxsga xos bo'lgan psixo-emotsional xususiyatlarga ega bo'lmagan obyektga jismoniy shaxsning huquqiy maqomidan oqilona foydalanish, huquqlarini kengaytirib borishi dargumondek qaralmoqda. Shuning bilan birga, aql va ong bir-biriga o'xshash tushunchalar emasligi ham ta'kidlanmoqda.

Ong barcha odamlarga xosdir. Bu miya hujayralarida tananing tashqi dunyo hodisalarini boshdan kechirishida va keyinchalik bu hodisalarga reaksiyasida ifodalangan elektrokimyoviy reaksiyalar majmuini anglatadi. Ong odamlarga og'riq, sevgi, nafrat, baxtning subyektiv hissiyotlarini boshdan kechirishga imkon beradi. Aql – bu bilimdan atrof-muhitga ta'sir qilish uchun foydalanish qobiliyatidir. Shu munosabat bilan, sun'iy intellektda ongning yo'qligi, shuningdek, biror narsani his qilish va xohlash qobiliyatining yo'qligi qayd etilishi kerak. Shuning uchun inson va sun'iy intellektning huquqiy holatini tenglashtirish maqsadga muvofiq emas. Darhaqiqat, bu holda biz fantastika yaratamiz: odamlar va dasturlar ma'lum bir natijaga erishishni istab, taxminan bir xil harakatlarni amalga oshiradilar, ularning





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

harakatlari uchun bir xil javobgarlikni o'z zimmalariga oladilar. Ma'lum bo'lishicha, sun'iy intellekt odamlar bilan bir qatorda asosiy huquqlarga ega bo'ladi: yashash huquqi, shaxsiy daxlsizlik huquqi va boshqalar. Sun'iy intellekt shaxsning subyektiv tajribalariga ega emasligi sababli, u odamning fonida juda ajralib turadi, chunki u ko'p jihatdan undan ustun turadi. Shunindek sun'iy intellekt yaqin kelajakda “**cogito ergo sum**” ya'ni “Men o'ylayotgan ekanman, demak men mavjudman” iborasini mustaqil ravishda anglay olmaydi.

Ammo, sun'iy intellekt maxsus huquqiy maqomga ega bo'lishi kerak. V. V. Arxipov, V. B. Naumov “Sun'iy intellektga yuridik shaxslar bilan o'xshashlik maqomini qo'llasa bo'ladi”<sup>4</sup>, deb hisoblashadi. Darhaqiqat, bu holda sun'iy intellekt tashkiliy birlikdan tashqari yuridik shaxsning barcha xususiyatlariga ega bo'ladi. A. A. Ivanov shu munosabat bilan sun'iy intellektning ikki tomonlama maqomi paydo bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi, chunki u fuqarolik huquqining obykti va subykti bo'lishi mumkin. Ushbu pozitsiya nuqtai nazaridan, narsalarga egalik huquqi haqida yana bir savol tug'iladi: Sun'iy intellekt narsalarganisbatan qanday huquqqa ega bo'ladi? Bu cheklangan mulk huquqi bo'ladimi?


Hozirgi vaqtda ushbu savollarga javob berishning iloji yo'q. L. I. Safargaleev Rim qonunchiligida qo'llaniladigan qoida – **servi res sunt (qullar – narsalar)** sun'iy intellektga tegishli degan fikrni bildiradi, uning fikriga ko'ra, sun'iy intellekt mustaqil huquq subykti bo'lishi mumkin emas, lekin u o'z xo'jayini uchun huquq va majburiyatlarga ega bo'lishi mumkin.

Yuqoridagi barcha qarashlar mavjud bo'lish huquqiga ega, ammo bizning fikrimizcha, ular kamchiliklardan ham xoli emas, chunki savol muqarrar ravishda paydo bo'ladi, uning egasi vafotidan keyin sun'iy intellektning huquqiy holati qanday bo'ladi?

Rossiya qonunchiligiga ko'ra, sun'iy intellektga egalik huquqini olish uchun mulk egasi bo'lish uchun nomzodlar besh yil kutishi talab qilinar ekan, ammo mazkur davrga kelib aqlga ega bo'lgan, harakatlarni amalga oshiradigan, biroq hech kim uchun huquq va majburiyatlarga ega bo'lmagan “noqonuniy sun'iy intellekt” mavjud bo'lishi mumkinku. Mazkur holatda keyin nima qilish kerak? Albatta, bu holda biz sun'iy

---

<sup>4</sup> Архипов В.В., Наумов В.Б. Искусственный интеллект и автоном-ные устройства в контексте права: о разработке первого в России закона о робототехнике // Труды СПИИ РАН. – 2017.- Вып. 6 (55). – С. 46-62.







ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6


intellektni qadimgi Misrda mushuklar, itlar va boshqa hayvonlar kabi tutishimiz mumkin, ya'ni ularni egalari bilan birga yo'q qilishimiz mumkin. Ammo bu qanchalik oqilona?

Yevropa parlamentining 2017 yil 16 fevraldagi qarori sun'iy intellektning huquqiy maqomi masalasini ko'rib chiqish uchun qiziq bo'lgan. Qarorda qayd etilishicha, Yevropa komissiyasi uchun robototexnika bo'yicha fuqarolik huquqi normalari bo'yicha tavsiyalar berilgan<sup>5</sup>. Ushbu hujjat matnida sun'iy intellektning huquqiy holati o'ziga xosdir, sun'iy intellekt o'ziga xos **“elektron shaxs”ga** aylanadi. Qarorda sun'iy intellekt uni almashtirish o'rniga, uning imkoniyatlarini to'ldirishga qaratilganligi ta'kidlangan. Shuningdek, sun'iy intellekt o'z harakatlari yoki harakatsizligi bilan odamga zarar yetkaza olmaydi, shuningdek zarar etkazish imkoniyatini tan olmaydi, sun'iy intellekt insonning barcha buyruqlariga bo'ysunishi kerak, ya'ni 1942 yilda fantastik yozuvchi Isaak Asimov tomonidan tuzilgan robototexnikaning uchta qonuni amalda mustahkamlangan. Qarorda bayon etilgan yondashuv eng maqbuli deb talqin etishga arziydi. Bundan tashqari, sun'iy intellektndan foydalanish bilan bog'liq kelib chiqadigan masalar yuzasidan javobgarlikning qay tartibda belgilanishi ham fuqarolik munosabatlarida juda qiziq holatlarni keltirib chiqaradi. Misol uchun “B” ismli shaxs sun'iy intellekt bilan boshqariladigan mashinada harakatlanib ketayapti. Avtomobil kutilmaganda yo'l yoqasidan o'tib ketayotgan odamlar tomon harakatlandi. Buning natijasida bir qancha yo'lovchilarga yengil shikast yetkazildi, avtomobil egasi hisoblangan “B” ismli shaxs juda ko'p hissiy stressni boshdan kechirdi, shuningdek mashinaning bamperi ham shikastlangan. Mazkur holatda, sog'liqqa yetkazilgan zarar uchun, ma'naviy zarar uchun hamda avtomobilga yetkazilgan zarar uchun zararni kim qoplaydi?

Mamlakatimiz qonunchiligiga muvofiq, barcha zararlar yuqori xavf manbai egasi tomonidan qoplanadi. Ammo mashinani sun'iy intellekt boshqargan bo'lsa, uni yengib bo'lmas kuch deb hisoblashimiz mumkinmi? Avtomobil egasi o'z vaqtida boshqalar uchun xavfni anglab, boshqaruvni o'z zimmasiga olishi mumkin edimi?

Yuqoridagi sun'iy intellekt bilan bog'liq ravishda zarar yetkazilishi natijasida yuzaga keladigan javobgarlik uchun sud amaliyoti qiyinchiliklarga duch keladi, ammo

<sup>5</sup> Резолюция Европарламента от 16 февраля 2017 года. [Электронный ресурс] // [robopravo.ru/riezoliutsiia\\_ies](http://robopravo.ru/riezoliutsiia_ies)





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

bir qator davlatlar bunday hodisalar yuzaga kelganda javobgarlikni tartibga soluvchi normalarni joriy etishgan.

Germaniya tajribasi haqida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, Germaniyada 2017 yil 16 iyundagi "Yo'l harakati to'g'risidagi qonunga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida Sakkizinchi qonun"<sup>6</sup> qabul qilingan bo'lib, bu aslida haydovchisiz (avtopilot) transport vositalaridan foydalanish imkoniyatini shakllantirdi. Qonunda haydovchi yo'lda sodir bo'layotgan voqealardan chalg'ishi mumkinligi belgilab qo'yilgan, shuningdek agar sun'iy intellektga asoslangan avtomobil boshqaruvni haydovchiga qisman sezilarli darajada yoki to'liq taklif qilsa, u boshqaruvni o'z zimmasiga olishga majburdir. Shuningdek, haydovchi agar sun'iy intellekt avtomashinasini keyingi boshqarish mumkin emasligini bilsa yoki bilishi kerak bo'lsa, masalan, haydovchi sun'iy intellekt bilan ishlaydigan mashina piyodalar olomoniga ketayotganini va hokazolarni ko'rsa, boshqaruvni o'z zimmasiga olishi kerak. Agar mazkur transport vositasining ichki nuqsoni ya'ni texnik xato tufayli zarar yetkazilgan bo'lsa, u holda avtomobil ishlab chiqaruvchisi javob beradi. Germaniyada mavjud bo'lgan ushbu javobgarlikka bo'lgan yondashuv haqiqatan ham juda yuqori sifatga ega, chunki texnik xato tufayli avtoulovni boshqarishni o'z zimmasiga olmagan avtoulovchi javobgar bo'lishi mumkin emas va bo'lmasligi kerak.

Javobgarlik masalasi 2017-yil 16-fevraldagi Yevropa parlamentining rezolyutsiyasida ham ko'tarilgan. Hujjat shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt o'z-o'zidan javobgar bo'lishi mumkin emas<sup>7</sup>, chunki uning harakatlari yoki harakatsizligi operator (egasi) ga bog'liq, ya'ni sun'iy intellekt ma'lum bir maqsadga erishish uchun o'ziga xos vositadir. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, texnik xato tufayli har qanday zarar yetkazilgan bo'lsa, nafaqat sun'iy intellekt egasi, balki ishlab chiqaruvchi ham javobgar bo'ladi. Shu bilan birga, qarorda aytilishicha, sun'iy intellektning avtonomiyasi qanchalik yuqori bo'lsa, u oddiy vosita sifatida shunchalik kam baholanishi mumkin.

Hozirgi kunda strategiyasiga ega bo'lgan mavjud 34 mamlakatlar orasida sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha ildamlik qilayotgan, butun dunyoda mazkur sohada liderlikka da'vo qilayotgani va eng jozibadori Qatar bo'lib turmoqda. Qatar davlati yoshlarga bilim berishda, o'qituvchilarning bilim salohiyatini aniqlash

<sup>6</sup> 2017 yil 16 iyundagi "Yo'l harakati to'g'risidagi qonunga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida Sakkizinchi qonun"  
// [robopravo.ru/initsiativy\\_frantsii\\_v\\_sfierie\\_robototiekhniki\\_2013\\_2](http://robopravo.ru/initsiativy_frantsii_v_sfierie_robototiekhniki_2013_2)

<sup>7</sup> Резолюция Европарламента от 16 февраля 2017 года. // [robopravo.ru/riezoliutsia\\_ies](http://robopravo.ru/riezoliutsia_ies)





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

hamda yuksaltirishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish, shuningdek aholining sun'iy intellektni boshqara olishdagi umumiy bilimni yuksaltirish orqali erishiladi deb hisoblashmoqda.

Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foylanish dunyo miqyosida, xususan bizning jamiyatimizning barcha sohalari qamrab olayotgani sababli uning huquqiy tartibga solinishi uchun quyidagi takliflar ko'rib chiqilishi zarur:

1. Mamlakatimiz qonunchilik hujjatlarida sun'iy intellekt tushunchasi, sun'iy intellekt texnologiyalarini yaratish va ulardan foydalanish natijasida yuzaga keladigan munosabatlarda uning ahamiyati to'g'risidagi normalar aks etmagan. Bu esa o'z navbatida sun'iy intellektning huquqiy maqomini va undan foydalanish doirasini belgilashda turli kolliziyalarni yuzaga keltirishi mumkin.

2. Axborot texnologiyalari rivojlanib borayotgan davrda sun'iy intellektning hozirgi va kelajakdagi jamiyatda tutadigan o'ri, huquqiy munosabatlardagi ahamiyatini hisobga olib qator amaliy hamda tashkiliy ishlar ko'rilishi kerak. Jumladan, xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalaridan, ishlab chiqayotgan sun'iy intellektni rivojlantirish hujjatlaridan kelib chiqib, mamlakatimiz qonunchilik bazasini hozirda loyiha sifatida turgan "Sun'iy intellektni rivojlantirish – 2030" strategiya bilan to'ldirish zarur.

3. Sun'iy intellekt texnologiyalarini yaratish va undan foydalanish bilan bog'liq munosabatlar fuqarolik-huquqiy tartibga solishni takomillashtirishda mavjud qonunchilik bazasini tizimlashtirish va uning qaysi sohada foydalanishiga ko'ra turdosh qonunchilik bilan moslashtirish ham muhim o'rin egallaydi.

4. Sun'iy intellekt texnologiyalarini yaratish va undan foydalanishga oid shartnomalarni yanada mukammallashtirish va aniqlashtirish, shuningdek sun'iy intellekt tomonidan ishlab chiqariladigan tovarlar, bajariladigan ishlar va xizmatlarda sun'iy intellektning obyekt yoki subyekt sifatida ko'rilishi, bundan tashqari uning natijasida kelib chiqadigan zararni kim tomonidan qoplanishi borasida ham aniq huquqiy tizim mavjud emas.

**Xulosa:** Olib borilgan o'rganishlar sun'iy intellekt tizimining kundalik hayotimizdagi o'ri qay darajada muhim ekanligi, u bilan bog'liq texnologiyalar hozirda ko'plab sohalarda ishlarning bajarilishini yengillashtirayotganini, ishchi kuchi





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6


o`rinlarini egallayotgani va sifatli xizmat taklif qilayotganini ko`rsatadi. Shu bilan birgalikda, sun`iy intellektni munosabatlardagi o`rni (uning o`zaro munosabatlarda obyekt yoki subyekt sifatida ko`rilishi) ya`ni uning huquqiy maqomini belgilash, qolaversa, sun`iy intellektni fuqarolik-huquqiy tartibga solinishi hali jahonning hech bir mamlakatida mukammal ravishda aks etmagan bo`lsa-da, ammo ularning taraqqiy etib borishi asta-sekinlik bilan mazkur sun`iy intellekt tizimining jamiyatdagi ahamiyatini oshishiga hamda yuqoridagi bo`shliqlarning to`ldirilishiga olib kelmoqda.

Xususan 2017 yil oktabr oyida ilk bora va hozirda yagona bo`lgan xitoylik olimlar tomonidan yaratilgan Sofia nomli robototexnika ishlanmasiga Saudia Arabistoni hukumati tomonidan mazkur mamlakat fuqaroligining taqdim etilishi, sun`iy intellektning ham jamiyat a`zosi sifatida inson huquqlaridan foydalanishiga, uning o`zaro munosabatlarda shaxs kabi namoyon bo`lishiga zamin yaratib berdi.

Sun`iy intellektning huquqiy maqomini belgilashning yana bir e`tiborli jihati shundan iboratki, aksariyat olimlar ushbu texnologiyaga yuridik shaxs maqomini berish bo`yicha taklif bermoqda. Ya`ni uni ham bir tuzilma ko`rinishida shakllantirib, tizim uchun alohida hisob raqam ochiladi, ko`rsatadigan xizmatlari evaziga tushadigan mablag`larni hamda yezkazishi mumkin bo`lgan zararini ochilgan hisobi orqali amalga oshiradi. Lekin yuridik shaxsni tashkil qilishning ham o`ziga xos talab va belgilari mavjud bo`lib, dasturga yoki robotga yuridik shaxs maqomini berilishi mantiqan to`g`ri bo`lmaydi. Yevropa parlamenti tomonidan sun`iy intellektning huquqiy maqomi masalasida 2017 yil 16 fevralda chiqargan qarori sun`iy intellektni "elektron shaxs"ga aylantirdi.

Sun`iy intellektdan foydalanishda kelib chiqadigan munosabatlarni tartibga solishda, avvalambor, mamlakatimiz qonunchiligiga quyidagi huquqiy elementlar bilan to`ldirish zarur:

- sun`iy intellekt tushunchasi va uning o`ziga xos xususiyatlarini ko`rib chiqish;
- sun`iy intellektning shakllanishi va uning rivojlanish bosqichlarini o`rganish;
- sun`iy intellektning fuqarolik-huquqiy tartibga solish asoslarini tahlil qilish;







- sun'iy intellektni yaratishga oid hamda sun'iy intellektdan foydalanishga oid shartnomalarning yuridik tavsifini yoritish;
- sun'iy intellektning huquqiy maqomini belgilash muammolari muhokama qilish.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. BMTning “Xalqaro shartnomalarda elektron xabarlardan foydalanish to'g'risida” gi Konvensiyasi;
2. Yevropa parlamentining 2017 yil 16 fevraldagi “Robototexnika bo'yicha fuqarolik huquqi normalari bo'yicha tavsiyalari”;
3. Germaniya Federatsiyasining 2017 yil 16 iyundagi “Yo'l harakati to'g'risidagi qonunga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida Sakkizinchi qonun”;
4. O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 29.08.1996 yil; O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yilda PF-6079 “Raqamli O`zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi Farmoni;
5. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.02.2021 yildagi PQ-4996-sonli “Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to`g`risida”gi Qarori;
6. O`zbekiston Respublikasining 05.10.2020 yilda qabul qilingan “Raqamli O`zbekiston – 2030” strategiyasi
7. Elektron tijorat va o'zaro bog'liq sohalar (huquqiy tartibga solish): maqolalar to'plami / E.A. Ostanina, L.V. Kuznetsova, E.S. Xoxlov [va boshqalar]; qo'llar avto hisoblash va javob. ed. Yuridik fanlar doktori M.A. Rojkova. – Moskva: Nizom, 2019. – 448 b.

### **Internet resurlar:**

1. [robopravo.ru/riezoliutsiia\\_ies](http://robopravo.ru/riezoliutsiia_ies)
2. [news.microsoft.com/ru-ru/sleduyushhij-rembrandt](http://news.microsoft.com/ru-ru/sleduyushhij-rembrandt)

